

ep

O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 14 706 ta. Shundan:

Qo'shma korxonalar:
6311 ta

Xorijiy korxonalar:
8395 ta

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#66 (16519)
2022-yil, 21-sentabr
chorshanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

Dolzarb mavzu
3-bet

Qachon Toshkentda yashilik
30 foizga yetkaziladi?

Yoshlar yetakchisi
4-bet

"Suvliq"ning muammosi
suvsizlik

Minbar
7-bet

Ma'rifatmi
yoki manfaat?



Foto: Azizbek YAZDURDIYEV

YOSHLAR YETAKCHISI

OLIS HUDUD YOSHLARI BILAN

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev mamlakatimizning eng chekka hududlardagi yoshlarning orzu-istaklarini tinglash, mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatining olis qishloqlarida bo'ldi

batafsil
2-betda

QACHON TOSHKENTDA YASHILLIK

30% GA YETKAZILADI?

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Toshkent shahar Xalq deputatlari kengashining "Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha bosh rejasini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Unga binoan 2023–2027-yillarda Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha bosh reja tasdiqlandi. Rejaga ko'ra, har yili 7 million tupga yaqin mavsumiy gullar, 75 mingdan kam bo'lmagan miqdorda daraxt ko'chatlari va butalar ekilishi nazarda tutilgan. Bu harakatlardan ko'zlangan maqsad esa 2024-yilgacha poytaxtning yashillik darajasini 30 foizgacha oshirishdir.



Odatda ko'pgina tashabbuslar juda baland parvoz gaplar, g'ayrat-shijoat bilan boshlanadi. Biroq ish oxiriga yetkazilmaydi, yoki ko'zbo'yamachilik oqibatida hammasi bir pul bo'ladi. Masalan, har yili ko'klamda millionlab ko'chatlar ekiladi, qog'ozlar to'ldiriladi va yuqori idoralarga hisobot beriladi. Shu bilan tamom. Natija hech kimga qiziq emasdek: ekkimmi, ekkid, ish bajarildimi, bajarildi! Nihollar parvarishiga kim mas'ul? Bugun ularning qanchasi "yashab" ketdi? Axir ularni o'tqazguncha qancha texnika, ishchi kuchi, mablag' sarflangan!

Birgina "Yashil makon" dasturi doirasida ekilgan ko'chatlar taqdirini eslang. Loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga (o'shanda ham 30 foiz edi) oshirish reja qilingandi. Qog'ozlarda bari chiroyli, amalda qanday? O'shanda ham **ekilmagan 6,2 million dona ko'chat hisobotga qo'shib yozilgan.**

Hisob palatasi dastur haqqoniyligini o'rganish jarayonida bir necha xatolarni aniqlagan. Jumladan, **3,4 million dona ko'chat sug'orish tizimi bo'lmagan joyga ekilgan, 2,4 million dona ko'chat suvsizlik va e'tiborsizlik sabab qurib qolgan, 341 mingta ko'chat**

yaroqsiz yerga ekilgan va 65 ming dona ko'chat ekilishida belgilangan masofa saqlanmagan.

Yoki 2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida Toshkent shahri va viloyatidagi tuman (shahar), aholi punktlari, xalq xo'jaligi obyektlari atrofida yashil hududlar barpo etish va 1 million daraxt ekish rejalashtirilgan edi. Afsuski, **ekilgan 75 ming daraxtdan 52 mingdan ortig'i qurib qoldi.** Bu voqea Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Farhod Dehqonov izoh berib, Toshkentda ekilgan daraxtlarning yashab qolish ko'rsatkichi 30-40 foizdan ham pasayib ketganini ta'kidlagan edi.

"Sug'orish tizimlarining yo'qligi sababli ekilgan daraxtlarning 30-40 foizdan ham kam qismi yashab keta oladi. Iqlimimiz issiq bo'lgani bois bu daraxtlar yil davomida suv bilan ta'minlanishi kerak, aks holda ular nes-nobud bo'lishi mumkin. Bu esa keyingi yillarda davlat byudjetidan yoki o'sha tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga yana millionlab pullar sarflanishiga sabab bo'ladi", – degan edi Farhod Dehqonov.

Oral dengizning qurigan tubi – sho'r yerdagi daraxt ko'kartirilayotgan bir paytda Toshkentda nihollarni saqlab qolish qiyin bo'lyapti deyish, kulgili emasmi? 75 ming daraxt eksak, 53 mingtasi qurib qolsa. Har bir niholni kamida 15 ming so'mdan deb hisoblasak (manzarali daraxtlar un-

dan ham qimmat), 780 million so'm havoga uchayotganini ko'rsatadi! Har yili mamlakatimizda taxminan 140-145 million dona nihol ekilishini e'tiborga olsak, qancha mablag' yashab qolishini hisob-kitob qilib ko'ravering. Bular bari xalqdan soliq sifatida undirilgan pullarni talashdir.

Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha bosh reja qarorida 7 millionga yaqin mavsumiy gullar ekish ham aytib o'tilgan. Iqtisodchi Otabek Bakirov bu haqda shunday yozadi:

"Rejaga ko'ra, har yili 6,9 million-dan 7,4 milliongacha gul ko'chatlari ekilishi kerak. Balki, o'zbek chinovniklarining ko'zini, cho'ntagini gul ko'proq quvontirar, bu haqda ko'p yozilgan, hokimlar nega gulga yopishvolgani haqida hali yana ko'p yoziladi. Lekin bilish kerakki, gul biron bir normal davlatda ijtimoiy ne'mat o'laroq qarmaydi, uni ekish, parvarishlash, saqlash, sug'orish daraxtga nisbatan bir necha o'n karraga qimmatga tushadi. Ha, yashillik, daraxtzorlar bu ijtimoiy tovar, lekin gul va gul ekish emas. Qachonlardir o'ta boy davlat bo'lib ketsak ham, bu prioritetlarda birinchi o'ringa chiqmaydi."

Darhaqiqat, bir daraxtni eplab eka olmay, juda katta miqdordagi mavsumiy gullar ekishga bel bog'lashimiz qanchalik mantiqli? Bu bosh reja boshimizga katta xarajatlarni olib keladigan ko'rinadi. Boz ustiga qarorda aniq moli-

YARATISH QO'LIMIZDAN KELMAS EKAN, HECH BO'LMASA, BORINI HAM SAQLAB QOLISHGA, MUHOFAZA QILISHGA HARAKAT QILMAYMIZMI?

yaviy ko'rsatkichlar ham yo'q.

To'g'ri, maqsad yashil hududlarni ko'paytirish. Tobora cho'llashib borayotgan poytaxtga daraxt-u gullar ekish, ko'kalamzorlashtirish siyosati bir qaraganda oqilona yechimdek ko'rinadi. Ammo yana "Falon joyga faloncha nihol qadardik", deya hisobotlar do'ndirilmasligiga kim kafolat beradi? Agar yillar davomida ekilgan ko'chatlar vaqtida sug'orilib, agrotexnika talablari asosida parvarishlanganda edi, allaqachon yurtimizning asosiy qismi yashillikka burkangan, o'rmonzorlarga aylangan bo'lardi. Lekin unday bo'lmadi. Qani o'sha manzara?

Yaratish qo'limizdan kelmas ekan, hech bo'lmasa, borini ham saqlab qolishga, muhofaza qilishga harakat qilmaymizmi? Hali u yerda, hali bu yerda millionlab qiymatga ega daraxtlar kesiladi. Aslida bor daraxtlarni kesmaslikka muayyan bir qarorimiz yo'q, biz esa "yashil shahar" bunyod qilmoqchimiz.

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISSHA FARG'ONA TAJRIBASI

Farg'ona viloyatida "Yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda Farg'ona viloyati tajribasi: muammo va yechimlar" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyada Yoshlar ishlari agentligi mas'ullari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlis Senati qoshidagi Yoshlar parlamenti raislari va qator soha mutaxassislari yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga doir ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Bir hafta davom etgan konferensiya doirasida mahallalardagi "Qalqon" guruhi a'zolari bilan reydlar o'tkazilib, profilaktik ro'yxatdagi Yoshlar tarbiyasi og'ir yoshlar uchun "Psixolog va yoshlar" sayyor qabul tashkil etildi.

Konferensiyadan so'ng mahalla yetakchilari, profilaktika inspektorlari hamda "Qalqon" guruhi yoshlari uchun o'quv davrasi tashkil etildi.



“SUVLIQ”NING MUAMMOSI SUVSIZLIK



Jasur TURSUNMURODOV,
Nurota tumanidagi “Suvliq” mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Mahallamiz qimmatbaho granit tosh qazilma boyliklariga ega hudud. So‘nggi ikki yil ichida bizning maskanda bir emas, 5 ta granit toshlarini qazib, qayta ishlaydigan sexlar faoliyat boshladi. Natijada 15 nafar ishsiz yosh doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. Ammo tanganing ikki tomoni bor deganlaridek, bu sexlar tayyorlayotgan mahsulotlarni tashiyotgan og‘ir yuk mashinalari mahallamiz yo‘lini yaroqsiz holga keltirib, mahalladoshlar e‘tiroziga sabab bo‘ldi. Tegishli tashkilotlarga qilgan murojaatim natijasida “Suvliq–Soykechar” yo‘nalishidagi 10 kilometr yo‘l qayta ta‘mirlanib, to‘liq asfaltlandi.

Suvliq qishlog‘i aholisi uchun ichimlik suvi dolzarb muammolardan biri edi. Bu muammoni hal etish uchun mahallamiz ahli nomidan tegishli tashkilotlarga murojaat bilan chiqdim. Murojaatlar natijasida 3 kilometrlik yangi suv quvurlarini yotqizish hamda 2 ta tik quduq qurish ishlari boshlandi.

“Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalari tarkibidan Street workout sport turi ham o‘rin olgan. Biroq shu vaqtga qadar mahallamizda bu sport bilan shug‘ullanish uchun sharoit yo‘q edi. Harakatlarimiz va murojaatlarimiz natijasida

24-, 28-, 46-maktablar hududlarida Street workout maydonlari qurilib, o‘quvchilar ixtiyoriga topshirildi. Yoshlar ayni shu maydonchalarda olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Hududimizda internet tarmog‘i yaxshi ishlatilmasligi bois “Yoshlar daftari” platformasiga onlayn ariza topshirishda ba‘zan qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Biroq **yoshlarimiz 1093 qisqa raqamiga murojaat qilib, o‘z muammolarini hal etishmoqda.** Ana shunday yoshlardan biri Davron Abdusalomov.

“

IKKI NAFAR YOSHGA
33 MILLION SO‘MDAN
IMTIYOZLI KREDIT
AJRATILDI.

U oddiy, o‘rta hol oila farzandi, o‘rta maxsus ma‘lumoti bor. Shu sabab tadbirkorlik qilish maqsadida imtiyozli kredit so‘rab “Yoshlardaftari.uz” platformasiga murojaat qilib, sovu ishlab chiqarish sexini yo‘lga qo‘yish niyatini bildirdi.

Davron tez orada anchadan buyon chorvachilik bilan shug‘ullanib yig‘gan 10 million so‘mga qo‘shimcha 15 million so‘m imtiyozli kredit olib ish boshladi. Zarur uskuna va mahsulotlar Farg‘ona viloyatidan yetkazib berildi. Hozir nafaqat mahallamiz, balki qo‘shni mahalla aholisining ham bu mahsulotga talabi qondirilmog‘da. Quvonarlisi, mazkur sex yana ikki nafar yoshni ish bilan band qildi.

Mahallamizda bunday kichik tadbirkorlar soni kundan kunga ortib bormog‘da. Shulardan biri Miroddin Mirzanov. U subsidiya asosida “Karcher” apparatiga ega bo‘ldi. Uyi yonidan avtomashinalar yuvish shoxobchasini qurib, kichik tadbirkorga aylandi. Yana ikki nafar yoshga 33 million so‘mdan imtiyozli kredit ajratildi. Hozir ular chorvachilik bilan band.

Shu kunga qadar “Suvliq” mahallasidan “Yoshlar daftari”ga 31 ta ariza kelib tushgan, shundan 23 tasi ijobiy hal etilgan.

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

Besh tashabbus olimpiadasi

TASHABBUSKOR YETAKCHILAR

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

Hududlarda “Besh tashabbus olimpiadasi” qizg‘in davom etmoqda. Jumladan, Kattaqo‘rg‘on shahridagi Amir Temur nomli mahallada yoshlar stritbol va street workout sport turlari bo‘yicha o‘zaro bahsga kirishdi.

Mahalladagi yoshlar yetakchisi Doston Shukrullayev yoshlarga qanot bo‘lib, ularni bir joyga jamlashga muvaffaq bo‘lgan. Ishtirokchilar stritbol bo‘yicha jamoaviy, street workout bo‘yicha yakkalik bahslarda kurash olib borishdi. Mahalla yoshlarining sportga qiziqishi, bo‘sh vaqt topdi deguncha sport maydonchasiga oshiqishi o‘z so‘zini aytadi.




– “Besh tashabbus olimpiadasi” bizga imkoniyatlar eshigini ochdi, – deydi Amir Temur mahallasidan street workout bo‘yicha g‘olib Shohjahon Yo‘ldoshev. – Sport musobaqalari men kabi yuzlab, minglab sportsevar yoshlarni birlashtirib, shug‘ullanishimizga imkoniyat yaratdi. Men mahalladagi bahslarda g‘olib bo‘lib, sektor bosqichiga yo‘llanma oldim. Maqsadim – respublika bosqichida ham g‘oliblikni qo‘lga kiritish.

“Besh tashabbus olimpiadasi” yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, vaqtini mazmunli o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Shofirkon tumani “Arabxo-

na” mahallasidagi jinoyat ko‘chasi-ga adashib kirib qolgan o‘smirlar yetakchining sa‘y-harakatlari bilan to‘g‘ri yo‘lga qaytdi. Ozod Hoshimov shu yilning fevral oyida o‘zaro kelishmovchilik natijasida, do‘stiga tan jarohati yetkazgan edi, sud qarori bilan ikki yosh yarashtirildi va to‘g‘ri yo‘lga qaytarish maqsadida mahalladagi yoshlar yetakchisiga birkiritildi. Shu bois yetakchi ularni “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalariga jalb etgan edi.

Ayni kunlarda olimpiadaning ikkinchi mavsumida Ozod Hoshimov ham o‘z xohishi bilan street workout musobaqasida ishtirok etmoqda. Mahalladagilarning undan umidi katta.

“INKLYUZIV O‘ZBEKISTON”



Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan sentabr oyi-da yurtimizning tarixiy shaharlariga nogiron yoshlar uchun “Inklyuziv O‘zbekiston” sayohati tashkil etilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 50 nafardan, jami 700 nafar imkoniyati cheklangan yosh Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlariga sayohat qiladi.



Jumladan, **xorazmlik yoshlar** ikki kun davomida Buxoro viloyatining tarixiy manzillari – Ark, Bolo hovuz masjidi, Poyi Kalon, Minorayi kalon, Ulug‘bek va Mir arab madrasalari, Labi hovuz, Sitorayi Mohi Xosa kabi madaniy meros yodgorliklari va tarixiy qadamjolarini tomosha qildi. Shuningdek, Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

Navoiy viloyatidan 50 nafar yosh Xorazm viloyatining qadimiy va ko‘hna Xiva va Urganch shaharlariga sayohat qildi. Sayohat davomidagi barcha xarajatlar Yoshlar ishlari agentligi jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lab berildi. Sayohatning birinchi kuni Urganch shahrining diqqatga sazovor joylari: Jaloliddin Manguberdi monumenti, 3 ming yillik tarixga ega Avesto majmuasi bilan tanishishdi. Xorazm viloyati Yoshlar markaziga ham “Inklyuziv sayohat” tashkil etildi.

Urganch shahrining istirohat bog‘ida madaniy hordiq chiqarishdi. Sayohatning ikkinchi kuni yoshlar “ochiq osmon ostidagi muzey shahar” – Xivaga yo‘l oldi. Ichan qal‘a va Di-shan qal‘alar, u yerda joylashgan har bir minora-yu tarixiy qadamjolarini ziyorat qilib, tarixi bilan bog‘liq ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlarga ega bo‘ldi.

Qoraqalpog‘istonlik 50 nafar nogiron yoshlar ham Buxoroda bo‘ldi. Sayohat Bahouddin Naqshband majmuasini ziyorat qilish bilan boshlandi. Sayohat davomida Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Ark, Labi hovuz, Chor minor, Mir arab madrasasiga hamda Sitoroyi Mohi Xosa majmuasi-ga tashrif buyurishdi.

Sayohatlarimiz davom etmoqda, yurtimizning boshqa hududlaridagi imkoniyati cheklangan yoshlar ham tarixiy shaharlarimizni ko‘rib, vaqtlarini chog‘ o‘tkazishadi.

Nilufar MATKARIMOVA,

Yoshlar ishlari agentligining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi

2410

NAFAR YOSH OILAGA

IPOTEKA KREDITINING

BOSHLANG‘ICH TO‘LOVI UCHUN

SUBSIDIYA AJRATILDI



Globalashuv jarayonlarining tobora kuchayishi oilaviy qadriyatlarining himoyasi masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bugungi kunda yoshlarning aksariyati (91,2 foizi) oila qurishga baxt sifatida qaraydi. Biroq ularning 10 foizga yaqini bu masalada salbiy va noaniq fikrga egaligi ham sir emas. Bu esa jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlar ongiga oila muqaddas tushuncha ekanligini singdirib borishni talab etadi.

Shu boisdan yosh oilalar o‘rtasida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, ajrimlarni barvaqt profilaktika qilish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, mamlakat yoshlari orasida ularning oila, ajrashish masalalariga munosabati va fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida doimiy sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Agentlik tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning aksariyatida yosh oilalar o‘rtasidagi ajrimga iqtisodiy, aynan, uy-joy bilan bog‘liq muammolar sabab sifatida ko‘rsatilgani bois **Samarqand viloyatida 30 yoshgacha bo‘lgan na‘munali 2410 nafar yosh oilaga ipoteka kreditining boshlang‘ich to‘lovlariga subsidiya mablag‘lari ajratildi.**

Samarqand viloyatida 466 064 taga yaqin yosh oila mavjud. Jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan bu oilalar qanchalik tinch va totuv bo‘lsa, davlat shunchalik tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu bois muammoli va ajrim holatiga kelib qolgan yosh oilalar uchun viloyatning har bir tuman va shahrida haftada bir marotaba psixolog qabullari tashkil etilishi belgilab qo‘yilgan. Bu bo‘yicha joylarda tizimli targ‘ibot tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, Pastdarg‘om, Paxtach, Jomboy, Bulung‘ur, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand tumanlarida shunday tadbirlar o‘tkazildi. Unda Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi va tuman bo‘limi xodimlari hamda bir qator mas‘ullar ishtirokida ajrim yoqasiga kelib qolgan 1047 ta oila uchun psixologik qabul tashkil etildi.

Shahzoda HAMIDOVA,

Yoshlar ishlari agentligining Samarqand viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo‘limi mutaxassisi

NIKOH VA NIKOH SHARTNOMASI

"Yoshlar ovozi" muxbiri

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi

Baxtli oila qurish, shirindan-shakar farzandlarning ota-onasi bo'lish har bir yigit-qizning orzusi. Ammo so'nggi vaqtlarda oiladek muqaddas tushunchaga befarqlik, oilaviy hayot haqida to'liq tushunchaga ega emaslik oqibatida ajrashish holatlari tobora ko'paymoqda.

Adliya vazirligining axborotiga ko'ra, joriy yilda ajrashishlar 20 798 tani tashkil etib, bu o'tgan 2021-yildagidan 4700 taga, ya'ni 21 foizga oshganini ko'rsatdi. Muammo tezkor yechim talab etmoqda. Biz bugun ajrimlar emas, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan masalalardan biri haqida suhbatlashamiz.

Nikoh buzilgandan so'ng mol-mulkni bo'lib olishda muammolar va o'zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelishi ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Bu muammo nafaqat er-xotin, balki farzandlar kelajagi uchun ham salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Buning oldini olishning iloji bor, ammo ko'pchilik yoshlarda huquqiy bilim yetarli bo'lmagani, o'z haq-huquqini bilmasligi natijasida imkoniyatlar foydalanilmay qolib ketaveradi. Maqolada oila qurish ostonasida turgan o'g'il-qizlarimiz uchun tegishli tushunchalar, kim qanday huquq va majburiyatlarga ega ekani haqida ma'lumot berishni maqsad qildik.

Nikoh bu nikoh yoshiga yetgan (18 yosh) yigit va qizning o'z arizalariga asosan Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro'yxatga olinib, oila qurish maqsadida er-xotin bo'lib yashash to'g'risidagi kelishuvidir. Ular o'rtasida yozma shaklda tuziladigan **Nikoh shartnomasi** notarial tartibda tasdiqlanuvchi hujjat hisoblanadi. To'yga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan, agar nikoh davrida tuzilsa, notarial tasdiqlangan davrdan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Oila kodeksining "Er va xotin mol-mulkingning shartnomaviy tartibi" deb nomlangan VI bobi, 29-36-moddalari ilk marotaba milliy qonunchiligimizga "Nikoh shartnomasi" tushunchasini olib kirdi. Unga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi hisoblanadi.



NEGA KERAK?

Nikohni tugatish vaqtida tartibga solinishi eng qiyin bo'lgan masalalardan biri bu mulkning teng bo'linishidir. Nikoh shartnomasi asosan mulk bo'linishi va majburiyatlar taqsimlanishi qay tartibda amalga oshirilishini oldindan belgilab beradi. Bir qarashda bu biroz noo'rin va g'alatidek. Boisi milliy mentalitetimizda oila muqaddas hisoblanib, jahon hamjamiyatida shakllangan an'analar erish tuyuladi. Ammo globallashuv davrida bu kabi masalalarga be'tibor bo'lish ham to'g'ri emas.

Nikoh shartnomasini tuzish G'arbiy Yevropa davlatlari, jumladan, AQSh, Kanada ko'proq ommalashgan. Dastlab Gretsiya va Rimda kelib chiqqan bu an'ana erkak va ayolning nikoh tuzishidan avval o'zaro munosabatlari - mulk va meros masalalari haqida kelishuvni rasmiylashtirishni nazarda tutgan.

Mavjud yoki bo'lg'usi mol-mulka nisbatan ham tuzilishi mumkin bo'lgan ushbu shartnomaning predmeti ko'chmas mulk, mashinalar, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bo'lishi mumkin. Misol uchun, nikoh shartnomasi tuzilmagan taqdirda er-xotin birgalikda yashagan davrida uy sotib olgan bo'lsa, ajrashishda bu uy teng

ikkiga bo'linadi. Agar nikoh shartnomasi tuzilgan bo'lsa, ajrashish va birgalikda yig'ilgan mol-mulkni bo'lishda sudya uning qoidalariga tayanadi. Shartnomada er-xotinning kelishuviga qarab, kvartira ajrashishdan keyin er yoki xotinning mulkiga o'tadi yoki sotilishi kerak deb qayd etilishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, nikoh shartnomasi mulkiy munosabatlarni tartibga solish orqali oilani mustahkamlaydi, er-xotinni bir-biriga tegishli mulkdan to'g'ri foydalanish va yaxshi saqlashga, mulkiy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga undaydi.

Avvalo, har qanday oila ajrashish niyatida emas, baxtli bo'lish uchun barpo etiladi. Uning muqaddasligi ham shunda.

Nikoh shartnomasi esa shu kabi holatlarning oldini olishda er va xotinning oila oldidagi qonuniy burchi hamda mas'uliyatini eslatib turadi. Er-xotin o'zaro burch va mas'uliyatni unutmagani uchun hech qachon ajrim yoqasiga kelmaydi.

Sizni yana qanday qonuniy masalalar qiziqtiradi? Taklif va murojaatlaringizni telegramdagi rasmiy sahifamizning maxsus @YO_tahririyati_botiga yo'llashingiz mumkin.



Birga o'qiyamiz

ENG FAOL ISHTIROKCHI ▶



Kitobxon yoshlar qiziqishiga sabab bo'layotgan "Birga o'qiyamiz" loyihasining 7-soni gazetamizning o'tgan sonlarida e'lon qilingan edi. Javoblarni yo'llash uchun ajratilgan vaqt o'z nihoyasiga yetdi. Pochta manzilimizga yuborilgan javoblarning ko'pligi, ayniqsa, kitobsevar yoshlarimizning "Ityurak" asari haqidagi shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirishda faolligi quvonarli hol.

Loyiha ilk bor e'lon qilingan sonda buyon faol bo'lgan ishtirokchilarimizdan biri - Samarqand viloyati Toyloq tumani 4-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Husnidabonu Hazratqulovani sizga tanishtirish niyatidamiz. Chunki barcha savollarga birinchi bo'lib to'g'ri javob yo'llagan kitobxon qizimiz g'oliblikni qo'lga kiritdi!

Tahririyat jamoasi nomidan g'olibni tabriklaymiz, kitobdan olgan taassurotlarini biz bilan

MA'RIFATMI yoki MANFAAT?

Kitob – muallifning o'quvchi bilan so'zlashish uchun bitgan nasriy va nazmiy ixtirosi. Kitobxon kitobda o'zi bilmagan yangilikni o'qisa, bebaho xazina topgandek xursand bo'lishi shubhasiz. Yaqinda ijtimoiy tarmoqda o'qirmanlar bilan "Nega kitob o'qiyasiz?" mavzusida savol-javob o'tkazilgan edi. Javoblar turlicha: "ko'ngilga taskinlik beradi", "beminnat maslahatchi", "to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatadi", "insonni qadrlashni o'rganamiz", "zerikmaslik uchun", "dam olish uchun" qabilidagi javoblar berildi.


Aslida biz kitobni nega sotib olamiz va o'qiyamiz? Kitob orqali borliqni anglaymiz, ma'naviy jihatdan ulg'ayamiz, qadim insonlar bilan suhbat quramiz, ular ko'rgan qiyinchiliklarga so'zlar orqali shohid bo'lamiz va shukronalik hissini tuyamiz. Siz ham o'zingizga nega kitob mutolaa qilayapman? – deya savol berib ko'ring!

KITOB DO'KONLARIGA NAZAR

Kitob-kitob deymiz-u, mohiyatan qanday kitob xarid qilayotganimizni ko'pchiligimiz bilmaymiz. Muqovasi yiltirab o'ziga tortsa, nomi yoqib qolsa, darrov sotib olamiz. O'qish kerak ekan deb "kitobxondek" muk tushib o'qiyamiz, ammo g'oyasiga tushunib-tushunmay tugatamiz. Keyin qaytib qo'limizga olishimiz dargumon. Shu sababmi, kitoblar yig'ilib, uyum bo'lib ketadi. Yaqinda bir gapga ko'zim tushgandi: "**Ko'p kitob va ko'p do'stdan hikmat yo'q. Hikmat ularni tanlay bilishda**".

Bugun qaysi kitob do'koniga kirmang, sotuvda o'zbekning o'zi va o'zligidan, tarixidan so'zlovchi asarlardan ko'ra inson psixologiyasi, hayotini o'zgartirishga, boyib ketishga yordam beruvchi kitoblar va turli tarjimalar ko'p ekaniga guvoh bo'lamiz. Aksariyat adabiyotlar esa salbiy qarashlarni shakllantirishi, insonning qiziqishlarini bema'ni tomonlarga yo'naltirishi, hatto kitobxonlik saviyasini pasaytirib yuborishi hech gap emas. Tanlov jarayoni inson tafakkuri – kitobxon fikri haqida so'zlaydi. "Ma'nau yetuk kitoblarni o'qi. Aks holda, bir dasta qog'oz hayotingni zaharlashi mumkin" (Mark Tven).

Shu o'rinda savol tug'iladi: "Nega klassik va XX asrda yaratilgan asarlar reklama qilinmaydi?". Bugungi asarlarga qaraganda ancha zalvor-



Guinora SHERMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
til va adabiyoti universiteti talabasi

li yo'lni bosib o'tgan va ma'naviy foydasi ham katta-ku! Yangi asarlar reklamasiz o'qilmaydimi yoki? Talab va taklifning ortishi uchun qilinyap-timi? Avvalgi asarlar haqida reklamasiz ham xabar topdigi-u, zamonaviy asarlardan ijtimoiy tarmoqda bong urilmasa, bexabar qolamizmi?

Reklama qilinayotgan kitoblar muqovasi shunchalik rang-barang ishlanganki, tashqi ko'rinish o'ziga tortadi. Asl adabiyot ortiqcha dab-daba va hashamga muhtoj emas. Reklama inson manfaatlarining xalq ma'naviy mulki bilan qarama-qarshi kelib qolishiga olib kelmasligi kerak. **Bugun kitob nashriyotlari va mas'ullar qay birini tanlamoqda, ma'rifatmi yoki manfaat?** Manfaat hech qachon tugamaydi. Shunday ekan, ma'rifati-ni manfaatga qurbon qilib qo'yamaylik!

TARJIMANING AHAMIYATI VA TARJIMA MAKTABI

Yaqinda kitob sotib olish uchun do'kon aylandim. Ko'ngildagi asarlarni topa olmay, xunob bo'ldim. Vaqt yo'qotayapman axir, vaqt. Kitob sotuvchidan o'zbek tilida chop etilgan zamonaviy va mumtoz o'zbek adabiyoti namunalarini nega

topib bo'lmasligini so'rasam, shunday javob oldim: "Bugun siz aytgan kitoblardan ko'ra mana bu tarjima (turk va ozar tilidan) va yo'yib ketish, yaxshi do'st topish, stresdan chiqish kabi adabiyotlar – mana bu qatorga terilganlari yaxshi sotiladi. Talab ham ko'p. Shuning uchun ko'p olib kelamiz".

Endi esa o'sha ko'pchilik e'tirof etayotgan kitoblarga nazar tashlasak. Bir-biriga yaqin, mazmunan ham bir g'oya atrofida yozilgan asarlar,

desak ham yangilashmaymiz. Masalan, ozar tilidan tarjima qilingan "Qaytganimda uyda bo'l", "Men, albatta qaytaman", "To seni topgunimcha", "Dengiz haqida so'zlab ber menga", "Mariya", "Nasroniy atirguli" va peshtaxtalarni to'ldirib yotgan boshqa asarlar. Nashriyotlar paydar-pay chop etib, siyohi qurimay sotuvga uzatayotgan kitoblar nega mazmunan sayoz? Bunda tarjimon yoki nashriyotlar aybdormi? Ularni to'xtata olmaymizmi?!

Agar jahon durdonalari yoki o'zbek adabiyotiga oid yirik asarlarni tushunmay qolsak, izlanib o'tirmay yopib qo'yamiz. Yuqoridagi asarlarga kelsak, "narxi ham hamyonbop" deb ro'kach qilishganini eshitib qolamiz.

Bilamizki, turk va ozar adabiyoti bu asarlar bilan o'chanmaydi. Ularning ham buyuk adabiyoti va tarixi bor. Nega turk yozuvchilari – Yashar Kamol, Aziz Nesin, Nozim Hikmat, Orxan Pamuk asarlari yoki ozar adabiyotidan Fuzuliy, Mirzo Fatali Oxundov, Ramiz Ravshan va ko'plab ijodkorlarning asarlari yangitdan tarjima qilinmaydi yoki kitob holda chop etilmaydi?

Tarjima – turli xalqlar o'rtasida qarashlar

va munosabatni shakllantiradi. Qadimgi davrlarda bu vazifani tilmochlar bajarganini bilamiz. Zamonalar osha bu jarayon ancha takomillashdi, ammo biroz kamchiliklar bordek, nazarimizda. Bugun tarjima so-

hasida "tarjima maktabi" zarur. Unda muayyan muddatda tarjimonlar uchun mahorat darslari o'tilsa, bir kitob ustida yetarli muddat berilsa, yosh tarjimonlar ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib borishsa, foydali bo'lar edi. Yoki faqat ma'rifat va ziyo uchun xizmat etuvchi davlat yoki xususiy nashriyot tashkil etish va bu maskanni topilmasga aylangan nodir – jahondagi buyuk ijodkorlarning asarlarini nashr etishga mo'ljallash kerak. Xuddi shu kitoblar uchun do'kon tashkil etish yanada xayrli bo'lar edi. Axir bugun kitob sotuvida jadid adabiyotimiz vakillaridan Behbudiy, Zaki Validiy, Fitrat, Sadriddin Ayniy yoki XX–XXI asr ijodkorlari Parda Tursun, Mirkarim Osim, Mirtemir, Oybek, Odil Yoqubov, Asqad Muxtor, Omon Muxtor, Shukrullo, Nazar Eshonqul asarlari yoki jahon adabiyotidan Chexov va Lev Tolstoy hikoyalari, Borxes, Folkner asarlarini juda kam uchratamiz yoki umuman duch kelmaymiz.

➤ Husnidabonu HAZRATQULOVA

bo'lishgani va faol ishtiroki uchun **Jamila Alimova, Guinora Odilova, Iroda Rahimboyeva, Sarvar Abdusamatov**larga minnatdorlik bildiramiz.

Tirishqoqlik, izlanuvchanlik sizlarni hech qachon tark etmasin. Zero, yoshlik bejiz shiddatli va shovqin solib oquvchi daryoga qiyos etilmagan. Shunday ekan, intilish va tinimsiz harakat qilishdan, kitob mutolaasidan to'xtamang, aziz yoshlar.



MATEMATIKA

Loyiha muallifi **Ziyoda RAHIMBOYEVA**



Tahririyatimizning telegramdagi rasmiy sahifasiga birlashtirilgan maxsus bot orqali yo'llanayotgan takliflardan kelib chiqqan holda "Bilarmidingiz?" loyihasining bu galgi mavzusi sifatida matematikani tanladik. Butun umrimiz davomida biz bilan yo'ldosh bo'ladigan bu fan o'zining sir-asrorlari, hali kashf etilmagan jihatlari bilan ham barcha uchun qiziq bo'lib kelgan. Demak, bugun qiziqarli matematika olamiga sayohat qilamiz!

BILIMLAR QIROLI

Matematikaga shunday ta'rif bersak, to'g'ri bo'ladi. Kimyo, fizika va tibbiyot matematikasiz mavjud bo'lmaganidek, hayotimizdagi barcha narsa hisob-kitobga asoslangan. Zamonaviy dunyoda hayotni matematik bilimlarsiz tasavvur etish qiyin. Shunday bo'lsa-da, tarixda ko'pgina mashhurlar, ayniqsa, olimlar bu fanni uncha xushlamagan.

Fridrix Engels aytganidek, "Matematika boshqa fanlar kabi odamlarning amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga keldi. Bular: yer maydonining yuzalarini, idishlarning sig'imini va vaqtni o'lchash hamda mexanikaning elementlaridir". Fanning paydo bo'lishi va bugungacha bo'lgan rivojlanish davrini buyuk olim A.Kolmogorov bir necha bosqichlarga bo'ldi. Unga ko'ra, matematika miloddan avvalgi VI-V asrlarda boshlangan mustaqil fan sifatida rivojlanish davridan so'ng elementar va o'zgaruvchi miqdorlar matematikasi davrini bosib o'tadi.

Matematika fan sifatida Sharqda yuksak darajaga yetdi. "Al-jabr val-muqobala" asari muallifi, "Algebra" termini nomi bilan bog'langan olim Al-Xorazmiy fan rivojiga juda katta hissa qo'shdi. U ilmiy izlanishlari natijasida yaratgan aritmetika va algebra o'ld asarlar Yevropaning qator tillariga ko'p marta tarjima qilinib, unda keltirilgan ilmiy dalillar matematika fanida va amaliyotda keng qo'llanilgan. Bugunga kelib yangi matematik nazariyalar, yangi-yangi tatbiqlar vujudga keldi, fanning predmeti, mazmuni sezilarli bo'yd. Aksiomalar sistemasi, isbotlashning mantiqiy usullarida yangilanishlar kuzatila boshladi.



“

"HAR BIR ILMDA QANCHA KO'P MATEMATIKA BO'LSA, SHUNCHA KO'P HAQIQAT BOR".

QIZIQARLI VOQEALAR

Mashhur amerikalik matematik Jorj Dantsing bir kuni universitet talabasi bo'lgan vaqtda darsga kech qoldi va doskada tushunarsiz tenglamalarni ko'rdi. U vazifani uy ishi sifatida tushunib, qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ularni yechdi. Ertasi kuni bu dunyodagi hech bir professor yechimini topa olmagan g'aroyib masalalar ekani ma'lum bo'ldi.

Yana bir qiziqarli ma'lumot. Tarixdagi birinchi matematik ayol aleksandriyalik Gipatiya bo'lgan. Mutaassib xristianlar qurboniga aylangan Gipatiya o'limiga qadar Aleksandriya muzeyida astronomiya, matematika va falsafadan dars bergan. Rossiya imperiyasida esa ayollar davlat tomonidan qo'yilgan taqiq sabab ilmiy faoliyat bilan shug'ullana olmagani.

Matematika fanlari professori Steven Xoking ham yoshlik yillari o'zidagi intilish, ilmga chanoqlik bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turgan. U shu darajada iste'dodli ediki, barcha materiallar, kitob va ilmiy manbalarni o'zi mustaqil o'rgangan. Uning so'zlariga ko'ra, u matematika fanini maktabda o'rgangan, xolos!

Sir-asrorga to'la bu fan qiralarini kashf etayotgan olimlar xalqaro darajadagi mukofot va sovrinlar bilan taqdirlab kelinadi. Ulardan Chern medal, Devid Xilbert mukofoti, Feliks Chayes mukofoti, Maydonlar medal, Lineer algebra bo'yicha Xans Shneyder mukofoti, ICTP Ramanujan mukofoti, Statistika bo'yicha xalqaro mukofot, Jon Sedrik Griffitsning o'qituvchilik mukofoti, Kennet O.May, Leelavati, Nevanlinna, Pol Erdos mukofotlari mashhur.

O'ZBEKISTONDA

Yurtimizda matematika fani rivojlanishi O'rtasiyo davlat universitetining ochilishi bilan bevosita bog'liq. Birinchi o'zbek matematigi Qori Niyoziy (1896-1970) ko'plab fundamental ishlarini amalga oshirdi. "Matematik analizning asosiy kursi" va 1937-yil nashr etilgan "Analitik geometriya asosiy kursi" kitoblari shular jumlasidan.

Bugun mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarining quyi sinflarida matematika, yuqori sinflarda esa algebra kurslari qat'iy o'quv dasturiga kiritilgan. OTMga kirish imtihonlarida uch fandan iborat majburiy bloklardagi birinchi fan ham matematikadir. Respublikamizning turli hududlaridagi xususiy maktab va o'quv markazlarida eng ko'p talab matematikani chuqurroq o'rganishga qaratilgan ayni haqiqat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilinib, unga muvofiq, har bir tuman (shahar)da matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilishi ko'zda tutilgan e'tirofqa munosib.

Mashhur faylasuf I. Kant aytgan quyidagi so'zlar sizga motivatsiya berishiga ishonamiz: "Har bir ilmda qancha ko'p matematika bo'lsa, shuncha ko'p haqiqat bor".

Loyiha haqidagi har qanday taklif va mulo hazangizni @YO_tahririyati_botga yo'l-lashingiz mumkin!

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor
SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida taniqli va sahifalandi. Tahririyat manzili: 1003033, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bo'smaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-955, Adadi - 10525. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6